

SCIENCE AND TECHNOLOGY INTERNATIONAL CONFERENCE

25 Oktober 2023

<https://eijnr.org/conferences/index.php/eimrc>

“KREDIT-MODUL” TIZIMI ASOSIDA O’QUV METODIK RESURSLARNI SHAKLATIRISHNING ALGORITMIK BOSQICHLARI

Jurayev Nuriddin Fayzulla o’g’li

Annotasiya. Ushbu maqola o’quv metodik resurslarni shakllantirish va “kredit-modul” tizimi asosida o’quv metodik resurslarni shaklatirishning algoritmik bosqichlari o’rganish maqsadlari va natijalari bilan bog’liq tushunchalari haqida ma’lumot berilib o’tiladi.

Kalit so’zlar: innovation, intellektual salohiyat, texnika-texnologiyalar, o’quv-metodik, o’quv-didaktik, o’quv-axborotli, o’quv-metodik.

Kirish. “XXI asr intellektuallashtirilgan rivojlangan ta’lim oluvchilarini qilib” tarbiyalash ta’limda va bo’lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ustuvor yonalishga aylanib bo’ldi Bunday yo’nalishlarda ta’lim oluvchilarning o’quv-biluvfaoliyatida ma’suliyat ko’prok, ta’lim oluvchilar zimmasiga tushadi va bunda o’qituvchi tomonidan berilgan axborotlar va tavsiyalarga (ma’ruza yoki amaliy-laboratoriya darslarida) asoslanib ta’lim oluvchilar mavzuga oid materiallarni (ilm-fan va texnika-texnologiyalar yutuqlarini hamda pedagogik innovatsiyalarni) o’quv va o’quv-metodik hamda ilmiy adabiyotlardan yoki internet tarmog’i orqali boshqa manbalardan o’zlari izlanib topadi, aks holda bunday faoliyatni og’ishmay amalga oshira olmaydigan ta’lim oluvchi **birinchidan**, zamonaviy ta’lim olish tendensiya talablariga javob bera olmaydi, **ikkinchidan**, XXI asrning faol ishtirokchisi bo’la olmaydi, **uchinchidan**, bunday ta’lim oluvchida axborot qidirish ko’nikmasi shakllanmagan bo’ladi, **to’rtinchidan**, bunday talim oluvchi zamonaviy axborot texnologiyalari bilan “tillasha” olmaydi, **beshinchidan**, bunday ta’lim oluvchi o’z-o’zini rivojlantira olmaydi, ya’ni intellektual salohiyatlari bo’la olmaydi.

“Kredit-modul” tizimining asosiy tarkibiy qismlari o’quv yuklamasi va o’qish natijalaridan iborat bo’ladi. Bu tarkibiy qismlarni anglab yetib ma’lum bir natijaga erishilgandagina o’rganilayotgan fan bo’yicha belgilangan miqdordagi kreditni qo’lga kiritishi mumkin. Unga ko’ra o’quv dasturlari ta’lim oluvchilarning o’quv-biluv faoliyatini yuksaltirishni ko’zlovchi turli fan va modullarga bo’linadi. Bunda xar bir fan yoki modul undagi o’quv yuklamasi miqdoriga qarab muayyan miqdordagi kreditlarga ega bo’linadi.

“Kredit-modul” tizimida bir o’quv yiliga oid kreditlar mikdori 60 tani tashkil etishligi rejalashtiriladi. Bir o’quv yili 2 semestrdan iborat bo’lgani uchun xar bir semestriga 30 ta kredit to’g’ri keladi.

Demak, bu yerda kredit o’lchov birligi sifatida ishlataladi.

“ECTS kredit-modul tizimida 1 kredit o’rtacha 25-30 akademik soatlik o’quv yuklamasiga teng. Ya’ni, talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni qo’lga kiritishi uchun ma’lum miqdordagi o’qish yuklamasini (“learning workloads”) bajarishi zarur.

O’quv yuklamasiga quyidagilar kiradi: dars vaqt; talabaning fanni o’rganish uchun shug’ullanishga (uydagи va kutubxonadagi) sarflagan vaqt; nazoratlar topshirish vaqt va shuningdek, talabaning o’rganilayotgan fanni o’zlashtirish uchun boshqa barcha tizimli harakatlari vaqt.

O’qish natijalari bu talaba o’quv yuklamalarini bajarish natijasida o’rganishi, tushunishi va qila olishi kutilayotgan bilim va ko’nikma jumlasidandir.

O’quv yuklamasi va o’qish natijasi Oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilab qo’yilgan bo’ladi. Buning ahamiyatli tomoni shundaki, kredit-modul tizimida talabalar “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” fani buyicha fan dasturi yoki uni o’rganish uchun mutaxassis sifatida nimani bera olish xaqida oldindan ma’lumotga ega bo’lgan talaba xam, barcha imkoniyatlarini shu natjalarga

SCIENCE AND TECHNOLOGY INTERNATIONAL CONFERENCE

25 Oktober 2023

<https://eijnr.org/conferences/index.php/eimrc>

erishishga qaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'raqulov.X.A; To'raqulov U.X; Osloava K.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv faoliyatiniyuksaltirishning innovasion texnologiyalari.Monografiya-T : "Innovasion rivojanish nashriyot -matboa uyi,"2020,336 b]
2. O'rinnov B. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif muassasalarida ESTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar.T., 2020, 64 b. (9-6.)].
- 3.O'rinnov B. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif muassasalarida ESTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar.T., 2020, 64 b. (11-bet).
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif muassasalarida ESTS kredit-modul tizimi (14-15 betlar).